



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI FAR'ONA VILOYAT STATISTIKA
BOSHQARMASI

Farg'ona viloyatida
kichik tadbirkorlik

2024- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar

Farg'ona viloyatida kichik tadbirkorlik

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar

2024- yilning 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni **32,6** mingtani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **3,5** mingtaga kamaygan yoki **9,7 %** ga pasaygan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **10,8** birlikni tashkil qildi.



Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2024- yilning yanvar-martida **1,6** mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **25,7 %** ga kam demakdir.

Yuridik shaxs – o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vegar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

2024- yilning 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo'lgan sohalar bo'yicha soni va ulushi

2020-2024- yillar 1- aprel holatida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz), ming birlikda



Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar

Hududlar bo‘yicha 2024- yil 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

2023- y.

2024- y.

1 990	Oltiariq tumani	1 911
1 197	Qo‘shtepa tumani	1 198
1 386	Bag‘dod tumani	1 198
1 662	Buvayda tumani	1 316
1 265	Beshariq tumani	1 061
1 674	Quva tumani	1 462
1 837	Uchko‘prik tumani	1 646
1 370	Rishton tumani	1 319
935	So‘x tumani	946
1 758	Toshloq tumani	1 548
1 678	O‘zbekiston tumani	1 450
1 564	Farg‘ona tumani	1 468
1 791	Dang‘ara tumani	1 435
921	Furqat tumani	843
796	Yozyovon tumani	848
5 746	Farg‘ona shahar	5 555
4 013	Qo‘qon shahar	3 454
1 378	Quvasoy shahar	1 241
3 182	Marg‘ilon shahar	2 745


2024-yil 1-aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni jami **32 644** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **1 630** tani tashkil etdi.

2024-yilning 1-aprel holatiga ko‘ra hududlar bo‘yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko‘pi Farg‘ona shahrida **5 746** tani yoki jamiga nisbatan **17,6 %** ni tashkil etdi.

2024- yil 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

36 143


2023- y.




Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbatli

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbatli, birlikda)*

Farg'ona sh	17,5
Quvasoy sh	17,8
Qo'qon sh	11,2
Marg'ilon sh	11,1
So'x t	12,5
Dang'ara t	10,8
Oltiariq t	11,9
Toshloq t	10,0
Uchko'prik t	10,4
Furqat t	10,5
Yozyovon t	10,5
Farg'ona t	11,0
O'zbekiston t	10,9
Rishton t	11,6
Buvayda t	6,8
Qo'shtepa t	7,9
Quva t	9,8
Bag'dod t	8,6
Beshariq t	7,1



Farg'ona viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbatli 1-aprel holatiga, birlikda



2024-yil 1-aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni har 1000 aholiga nisbatan 10,8 birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan 1,1 birlikka kamaygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbatli eng yuqori ko'rsatkich Quvasoy shahrida 17,8 birlik, Farg'ona shahrida 17,5 birlik, So'x tumanida 12,5 birlik, Oltiariq tumanida 11,9 birlik, va Rishton tumanida 11,6 birlikka yetdi.


* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Farg‘ona viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda

Eng yuqori ko‘rsatkich

Quvasoy shahar
– 17,8 birlik.




O‘rta ko‘rsatkich

Toshloq tumani
– 10,0 birlik.



Eng past ko‘rsatkich

Buvayda tumani
– 6,8 birlik.



Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati tuman va shahrlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko‘rsatkich Quvasoy shahrida **17,8** birlik, Farg‘ona shahrida **17,5** So‘x tumanida **12,5** birlik, Oltiariq tumanida **11,9** birlik, Rishton tumanida **11,6** birlik, Qo‘qon shahrida **11,2** birlik, Marg‘ilon shahrida **11,1** birlik, Farg‘ona tumanida **11,0** birlik kuzatildi.

Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o‘zi tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

2024- yil 1-aprel holatiga har 1000 aholiga nisbatan to‘g‘ri keladigan tadbirkorlik subyektlarining ko‘p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda

Quvasoy shahri

17,8

So‘x tumanı

12,5

Rishton tumani

11,9

Farg‘ona shahri

11,6

Oltiariq tumani

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

Yanvar-mart oylarida hududlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

2023- y.

2024- y.

115	Oltiariq t.	93
61	Qo‘shtepa t.	82
109	Bag‘dod t.	56
98	Buvayda t.	70
90	Beshariq t.	60
157	Quva t.	75
88	Uchko‘prik t.	72
72	Rishton t.	93
63	So‘x t.	51
115	Toshloq t.	88
100	O‘zbekiston t.	69
86	Farg‘ona t.	91
103	Dang‘ara t.	52
48	Furqat t.	44
65	Yozyovon t.	47
365	Farg‘ona sh.	268
191	Qo‘qon sh.	158
147	Quvasoy sh.	62
122	Marg‘ilon sh.	99

2024- yilning yanvar-martida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo‘yicha ulushi, % da




2024- yilning yanvar-martida hududlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko‘p ulushi Farg‘ona shahri – **16,4** %, Qo‘qon shahri – **9,7** %, Marg‘ilon shahri – **6,0** %, Oltiariq tumani – **5,7** %, Rishton tumani – **5,7** %, Farg‘ona tumani – **5,6** %, Toshloq tumani – **5,4** % hissalariga to‘g‘ri keldi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2023-2024- yillarning yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda



Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan shahar va tumanlar, birlikda




2024-yilning yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida **705** ta, sanoatda **369** ta hamda yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda **104** ta yangidan tashkil etilgan.


Viloyatning tumanlari va shaharlari kesimida tahlil qilinganda, eng ko‘p kichik korxona va mikrofirma Farg‘ona shahrida **268** ta, Qo‘qon shahrida **158** ta hamda Marg‘ilon shahrida **99** ta yangi tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, ming birlik



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2020-2024- yillarning yanvar-marti davomida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, ming birlik




So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab - quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek, bu sohaga berayotgan katta e'tiborlari natijasida 2020-2024- yillarning yanvar-mart oylari davomida Farg'onaviyoyatida jami **9 266** ta kichik korxona va mikrofirma yangi tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida – **3 776** (yoki **41,4 %**) ta, sanoat sohasida – **2 238** (yoki **24,6 %**) ta, xizmatlar sohasida – **1 972** (yoki **21,6 %**) ta, qurilish sohasida – **477** (yoki **5,2 %**) ta va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **649** (yoki **7,1 %**) tani tashkil etgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari

Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko‘rsatkichlari, % da




■ 2023- y. ■ 2024- y.




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIMdagi ulushi dinamikasi (yanvar-mart oylarida), % da

2024- yilning yanvar-martida YAIM tarkibida kichik tadbirkorlik subyekt-larining ulushi **64,0** % ni tashkil qilib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan **1,7** punktga ko‘paygan.





2024- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo‘lgan tarmoqlari, % da





2024-yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari yo‘lovchi aylanmasida **97,5** % ni, qishloq xo‘jaligida **94,1** % ni, yo‘lovchi tashishda **96,3** % ni, yuk aylanmasida **95,7** % yuk tashishda **93,55** % ni, chakana savdoda **91,2** %, ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-mart oylarida)



Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari (yanvar-mart oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligidagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko‘rsatishdagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


2024- yilning yanvar-martida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so‘m

Qo‘qon sh	793,3
Farg‘ona sh	727,6
Uchko‘prik t	556,8
Marg‘ilon sh	345,9
Qo‘shtepa t	275,4
Toshloq t	194,5
Dang‘ara t	185,8
Buvayda t	172,8
Beshariq t	162,7
Bag‘dod t	150,1
Quvasoy sh	137,2
Furqat t	132,1
Oltiariq t	121,3
O‘zbekiston t	115,2
Quva t	70,0
Yozyovon t	69,6
Farg‘ona t	45,7
Rishton t	45,6
So‘x t	23,3

2024-yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **4 324,9** milliard so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Qo‘qon shahri (**793,3** mlrd. so‘m), Farg‘ona (**727,6** mlrd. so‘m), Uchko‘prik tumani (**556,8** mlrd. so‘m), Marg‘ilon (**345,9** mlrd. so‘m) va Qo‘shtepa (**275,4** mlrd. so‘m) shahar va tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi. So‘x tumanida (**23,3** mlrd. so‘m) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo‘lib qolmoqda.


Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmida eng yuqori ulushga ega shahar va tumanlar, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi ulushi, % da

2024- yil yanvar-martida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **51,5 %** ni tashkil etdi.



2024- yilning yanvar-martida hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da

Hududlar kesimida kichik tadbirkorliknining jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini So‘x tumani (**100,0 %**), Furqat tumani (**100,0 %**), Yozyovon tumani (**100 %**), Marg‘ilon shahri (**95,6 %**), Uchko‘prik tumani (**71,7 %**), Dang‘ara tumani (**69,3 %**), Buvayda tumani (**68,0 %**), Bag‘dod tumani (**64,8 %**), Beshariq tumani (**62,1 %**), va Oltiariq tumani (**60,7 %**) tashkil etdi.

So‘x t	100,0
Furqat t	100,0
Yozyovon t	100,0
Marg‘ilon shahri	95,9
Dang‘ara t	69,3
Beshariq t	62,1
Buvayda t	68,0
Uchko‘prik t	71,7
Rishton t	45,1
Bag‘dod t	64,8
O‘zbekiston Respublikasi	46,3
Oltiariq t	60,7
Qo‘shtengiz tumani	58,3
Quva t	45,0
Qo‘qon shahri	55,5
Quvaso t	44,5
Farg‘onaning qad. tumani	30,8
Farg‘ona t	13,4
Toshloq t	47,6

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi hajmi va ulushi dinamikasi



2024- yilning yanvar-martida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi


	hajmi, mldr. so'mda	ulushi, % da
Farg‘ona sh	399,2	87,0
Qo‘qon sh	200,7	90,5
Quvasoy sh	69,4	100,0
Marg‘ilon sh	146,8	56,9
Farg‘ona t	44,9	74,6
Toshloq t	67,6	97,0
Oltiariq t	59,4	95,0
Quva t	78,3	95,6
Bag‘dod t	141,9	94,5
Buvayda t	84,1	96,7
Qo‘shtepa t	94,1	77,3
Uchko‘prik t	43,5	97,4
O‘zbekiston t	20,1	89,4
Yozyovon t	28,9	84,8
Rishton t	32,7	98,5
Dang‘ara t	61,7	67,7
Furqat t	24,7	87,3
So‘x t	15,8	92,3
Beshariq t	43,0	96,7

2024-yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **1 656,9** mldr. so‘mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **84,7** % ini tashkil etdi. O‘sish sur’ati 2023-yil yanvar-mart oylariga nisbatan **115,5** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Farg‘ona shahri (**399,2** mldr. so‘m), Qo‘qon shahri (**200,7** mldr. so‘m), Marg‘ilon shahri (**146,8** mldr. so‘m), Bag‘dod tumani (**141,9** mldr. so‘m), Qo‘shtepa tumani (**94,1** mldr. so‘m), Buvayda tumani (**84,1** mldr. so‘m) hamda Quva (**78,3** mldr. so‘m) tumanilarida qayd etildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


2019-2024- yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o‘zgarish dinamikasi, trln. so‘mda




2024-yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **3 567,3** milliard so‘mni yoki jami investitsiya hajmining **69,4 %**ini tashkil etdi. O‘sish sur’ati 2023- yilning mos davriga nisbatan **144,5 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Farg‘ona shahri (**658,8** mlrd. so‘m), Uchko‘prik tumani (**385,9** mlrd. so‘m), Quvasoy shahri (**304,0** mlrd. so‘m), Oltiariq tumani (**290,4** mlrd. so‘m), O‘zbekiston tumani (**284,6** mlrd. so‘m), Marg‘ilon shahri (**209,8** mlrd. so‘m), Qo‘qon shahri (**206,0** mlrd. so‘m) qayd etildi.

2019-2024- yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da



2024- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiva haimi va ulushi




■ hajmi, mlrd. so‘m ■ ulushi, %

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligi faoliyati

2024- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi **3,6** trln. so‘mni yoki jami qishloq xo‘jaligi mahsuloti hajmining **94,1** % ini tashkil etdi. O‘sish sur’ati 2023- yilning tegishli davriga nisbatan **103,2** % ni tashkil qildi.

2019-2024- yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari qishloq xo‘jaligi hajmining o‘zgarish dinamikasi, trln. so‘mda



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi Oltiariq tumani (**363,3** mlrd. so‘m), Beshariq tumani (**257,8** mlrd. so‘m), Farg‘ona tumani (**254,6** mlrd. so‘m), Quva tumani (**246,3** mlrd. so‘m), O‘zbekiston tumani (**241,3** mlrd. so‘m) hamda Buvayda (**234,0** mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi.

2024- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi

Oltiariq t	0,4	99,0
Qo‘shtepa t	0,2	99,5
Bag‘dod t	0,2	95,7
Buvayda t	0,2	99,6
Beshariq t	0,3	94,5
Quva t	0,2	99,7
Uchko‘prik t	0,2	99,7
Rishton t	0,2	99,5
So‘x t	0,1	99,8
Toshloq t	0,1	99,6
O‘zbekiston t	0,2	98,4
Farg‘ona t	0,3	68,3
Dang‘ara t	0,2	97,0
Furqat t	0,2	99,2
Yozyovon t	0,1	99,6
Farg‘ona sh	0,2	88,2
Qo‘qon sh	0,1	98,7
Quvasoy sh	0,1	71,9
Marg‘ilon sh	0,1	98,3

↑
hajmi, trln. so‘mda ↑
ulushi, % da

Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmi va ulushi dinamikasi




2024- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **5 323,2** mld. so‘mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **91,2 %** ini tashkil etib, o‘sish sur’ati 2023- yilning tegishli davriga nisbatan **107,6 %** ni tashkil qildi.

2024- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi

Oltiariq t	322,8	97,5
Qo‘shtepa t	114,4	96,5
Bag‘dod t	138,1	96,4
Buvayda t	279,2	98,1
Beshariq t	281,6	97,8
Quva t	315,3	98,1
Uchko‘prik t	421,7	68,0
Rishton t	141,1	96,5
So‘x t	154,2	99,3
Toshloq t	190,7	99,0
O‘zbekiston t	78,9	93,7
Farg‘ona t	163,9	98,6
Dang‘ara t	100,6	96,1
Furqat t	56,2	96,2
Yozyovon t	67,6	96,7
Farg‘ona sh	980,2	87,5
Qo‘qon sh	724,5	88,2
Quvasoy sh	88,8	98,8
Marg‘ilon sh	703,5	97,4


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Farg‘ona shahri (**980,2** mld. so‘m), Qo‘qon shahri (**724,5** mld. so‘m), Marg‘ilon shahri (**703,5** mld. so‘m), Uchko‘prik tumani (**421,7** mld. so‘m), Oltiariq tumani (**322,8** mld. so‘m), Quva tumani (**315,3** mld. so‘m) va Beshariq (**281,6** mld. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

2019 va 2024- yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o‘zgarishi, trln. so‘m



Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko‘rsatish faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko‘rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2024- yilning yanvar-martida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko‘rsatish hajmi, mlrd. so‘mda

Marg‘ilon sh	131,3
Quvasoy sh	31,8
Qo‘qon sh	283,0
Farg‘ona sh	375,6
Yozyovon t	11,0
Furqat t	15,4
Dang‘ara t	39,8
Farg‘ona t	55,9
O‘zbekiston t	25,8
Toshloq t	47,1
So‘x t	21,1
Rishton t	26,6
Uchko‘prik t	105,9
Quva t	40,8
Beshariq t	39,3
Buvayda t	61,3
Bag‘dod t	24,3
Qo‘shtepa t	34,1
Oltiariq t	161,3

2024- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **1 531,3** mlrd. so‘mlik xizmatlar ko‘rsatildi yoki ko‘rsatilgan xizmatlar umumiyligi hajmining **65,3 %** ini tashkil qildi va o‘sish sur’ati 2023- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **111,8 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p xizmatlar hajmi Farg‘ona sh. (**375,6** mlrd. so‘m), Qo‘qon sh. (**283,0** mlrd. so‘m), Marg‘ilon sh. (**131,3** mlrd. so‘m), Oltiariq tumani (**161,3** mlrd. so‘m), Uchko‘prik tumani (**105,9** mlrd. so‘m), Quva tumani (**40,8** mlrd. so‘m) va Buvayda tumani (**61,3** mlrd. so‘m) hissasiga to‘g‘ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko‘rsatish faoliyati

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo‘lgan turlari
(yanvar-mart oylarida)

24 218,9	Savdo xizmatlari	39,6
657,9	Moliyaviy xizmatlar	1,1
14 956,6	Transport xizmatlari	24,4
2 386,1	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	3,9
3 029,8	Shaxsiy xizmatlar	4,9
923,3	Ta’lim sohasidagi xizmatlar	1,5
1 833,9	Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta’mirlash bo‘yicha xizmatlar	3,0
3 635,8	Yashash va ovqatlanish xizmatlari	5,9
2 478,9	Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar	4,1
1 215,6	Sog‘lijni saqlash sohasidagi xizmatlar	2,0
1 880,5	Ijara xizmatlari	3,1
837,8	Me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	1,4
3 130,4	Boshqa xizmatlar	5,1

Hajmi, mlrd. so‘mda

Ulushi, foizda


Yuqoridagi diagramma ma’lumotlariga ko‘ra, xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushi savdo xizmatlarida – **39,6 %** (**24 218,9** mlrd. so‘m), transport xizmatlarida – **24,4 %** (**14 956,6** mlrd. so‘m), yashash va ovqatlanish xizmatlarida **5,9 %** (**3 635,8** mlrd. so‘m) hamda boshqa xizmatlarda **5,1 %** (**3 130,4** mlrd.so‘m)ni tashkil etdi.

Kichik biznes subyektlarining xizmatlar sohasida eng kichik ulushi moliyaviy xizmatlarda **1,1 %** (**657,9** mlrd so‘m) kuzatildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati (yanvar-mart oylarida)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati


Hajmi, *mlrd. AQSH doll.*



Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

Hajmi, *mlrd. AQSH doll.*

Ulushi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2019-2024 yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2024- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi

	hajmi, mln. AQSH dollar	ulushi, % da
Farg'ona sh.	44,0	56,3
Qo'qon sh.	57,5	56,8
Quvasoy sh.	17,2	84,8
Marg'ilon sh	16,2	99,7
Oltiariq t.	9,8	91,4
Qo'shtepa t.	17,4	67,8
Bag'dod t.	1,4	48,8
Buvayda t.	2,0	67,0
Beshariq t.	1,9	32,7
Quva t.	5,3	64,3
Uchko'prik t.	25,6	94,4
Rishton t.	0,6	31,3
So'x t.	0,7	100,0
Toshloq t.	1,2	55,2
O'zbekiston t.	3,0	72,7
Farg'ona t.	0,3	15,5
Dang'ara t.	3,3	96,0
Furqat t.	2,4	100,0
Yozyovon t.	1,3	100,0

2024- yilning yanvar-martida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **92 823,1** ming AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **69,3 %** ini tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi So'x tumanida – **100,0 %**, Furqat tumanida – **100,0 %**, Yozyovon tumanida – **100,0 %**, Marg'ilon shaxrida – **99,7 %**, Dang'ara tumanida – **96,0 %**, Uchko'prik tumanida – **94,4 %**, Oltiariq tumanida – **91,4 %** ni tashkil qildi. Eng past ko'rsatkich Farg'ona tumanida – **15,5 %** ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2024- yilning yanvar-martida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **198 367,5** ming AQSH dollarini yoki jami importning **76,5%** ini tashkil etdi.


2024- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da




2024- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Buvayda tumanida – **100,0%**, So'x tumanida – **100,0%**, Furqat tumanida – **100,0** %, Yozyovon tumanida – **100,0** %, Dang'ara tumanida – **100,0%**, Marg'ilon shahrida – **99,9%**, hamda Rishton tumanida **99,6** % ni tashkil etdi.

Oltiariq t	94,2
Qo'shtepa t	73,0
Bag'dod t	96,2
Buvayda t	100,0
Beshariq t	96,2
Quva t	86,4
Uchko'prik t	73,9
Rishton t	99,6
So'x t	100,0
Toshloq t	99,2
O'zbekiston t	93,6
Farg'ona t	77,6
Dang'ara t	100,0
Furqat t	100,0
Yozyovon t	100,0
Farg'ona sh	58,3
Qo'qon sh	89,4
Quvasoy sh	86,4
Marg'ilon sh	99,9


Kichik tadbirkorlik subyektlarininig transport faoliyati




2024- yilning yanvar-martida avtomobil transportida yuk tashishning umumiyligi hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **93,5 %** ni tashkil etdi. 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **102,0 %** ni tashkil qildi.



2024- yilning yanvar-martida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiyligi hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **95,7 %** ni tashkil etgan bo'lib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **102,9 %** ni tashkil qildi.



2024- yilning yanvar-martida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiyligi hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **96,3 %** ni tashkil etib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **100,6 %** ni tashkil qildi.



2024- yilning yanvar-martida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiyligi hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **97,5 %** ni tashkil etib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **100,6 %** ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yil I chorak bo‘yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi, birlikda




2024- yil I chorak yakunlariga ko‘ra, kichik korxona va mikrofirmalar o‘rtasida tanlanma kuzatuvlar o‘tkazildi.

Ushbu so‘rovnoma da 1 971 ta kichik korxona va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 730 (37,1 %) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 1 133 (57,4 %)ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 108 (5,5 %)ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – 41,1 % (810 ta), xizmatlar sohasida – 28,3 % (557 ta), sanoatda – 19,7 % (388 ta), qurilishda – 7,9 % (155 ta), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 3,1 % (61 ta) ni tashkil etdi.

2024- yil I chorak bo‘yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi, % da



Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari


2024- yil I chorak bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo‘yicha taqsimlanishi

soni	Ulushi, foizda	
129	Oltiariq tumani	6,4
39	Qo‘shtepa tumani	1,9
57	Bag‘dod tumani	2,8
78	Buvayda tumani	3,9
83	Beshariq tumani	4,1
90	Quva tumani	4,5
115	Uchko‘prik tumani	5,7
89	Rishton tumani	4,4
75	So‘x tumani	3,7
74	Toshloq tumani	3,7
85	O‘zbekiston tumani	4,2
82	Farg‘ona tumani	4,1
91	Dang‘ara tumani	4,5
48	Furqat tumani	2,4
59	Yozyovon tumani	2,9
366	Farg‘ona sh.	18,2
229	Qo‘qon sh.	11,4
55	Quvasoy sh.	2,7
165	Marg‘ilon sh.	8,2

Hududlar kesimida kichik tadbirdorlik subyektlarining eng ko‘p kuzatuvida ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalar Farg‘ona shahri (**366** ta), Qo‘qon shahri (**229** ta), Marg‘ilon shahri (**165** ta), Oltiariq (**129** ta) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2020-2024- yillarning I choragi uchun umumiy iqtisodiy holatini baholanishi dinamikasi(joriy davrga nisbatan), birlik




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalarning soni 2020- yilning I choragida **776** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning I choragiga kelib esa **731** taga yetgan yoki 2020- yilning I choragiga nisbatan **45** taga kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning soni 2020- yilda **697** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilning yanvar-martida **1 133** ta yoki **436** taga oshgan.

O'z nabatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2020- yilda **35** tani tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilga kelib **107** tani tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2020- yilga nisbatan **72** taga oshgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2020-2024- yillarning I choragida umumiyl iqtisodiy holatini baholaganlar soni (o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan), birlik



qulay

qoniqarli

qoniqarsiz

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo‘yicha o‘tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma’lumotlari natijasi bo‘yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o‘zlarining umumiyl iqtisodiy vaziyatini o‘tgan yilning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalarining soni 2020- yilning I choragida **1 079** tani tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024-yilning I choragiga kelib esa **762** taga yetgan yoki 2020- yilga nisbatan **317** taga kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o‘zgarishsiz deb baholagan korxonalarining soni 2020-yilning I choragida **421** ta bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024-yilning I choragida **954** ta yoki **533** taga oshgan.

O‘z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarining soni esa 2020- yilning I choragida **8** tani tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilning I choragiga kelib, bu ko‘rsatkich **70** tani tashkil etib, **62** taga oshgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2020-2024- yillarning I choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (korxonaning joriy holati bo‘yicha), % da




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo‘yicha o‘tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma’lumotlari natijasi bo‘yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhitini holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o‘zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2020-yilning I choragida **51,5** % ni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024- yilga kelib esa **36,7** % ga yetgan yoki 2020- yilga nisbatan **14,8** birlik kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2020- yilda **46,2** % bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024- yilning I choragida **57,6** % yoki **11,4** birlikka oshgan.

O‘z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2020- yilda **2,3** % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2024- yilga kelib, bu ko‘rsatkich **5,7** % ga yetgan yoki **3,4** % ga ko‘paygan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2020-2024- yillar I choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (o‘tgan yillarning mos davriga nisbatan), % da




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo‘yicha o‘tkaziladigan tanlanma kuzatuvi ma‘lumotlari natijasi bo‘yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o‘zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o‘tgan yillarning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar ulushi 2020- yilning I choragida **71,6** % ni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024- yilga kelib esa **47,6** % ga yetgan yoki 2020- yilning I choragiga nisbatan **24,0** birlik kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o‘zgarishsiz deb baholagan korxonalarining ulushi 2020- yilning I choragida **27,9** % bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024- yilning yanvar-martida **49,9** % yoki **22,0** birlikka oshgan.

O‘z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarining ulushi esa 2020- yilning I choragida **0,5** % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2024- yilning I choragiga kelib, bu ko‘rsatkich **2,5** % yoki **2,0** birlikka oshgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2024- yilning I choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda – **44,9** % ni, sanoatda – **16,3** % ni, xizmatlar sohasida – **26,7** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida – **29,6** % ni, savdoda – **39,2** % ni, sanoatda – **21,6** % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi savdoda – **34,6** % ni, xizmatlar sohasida – **24,3** % ni, sanoatda – **23,4** % ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



■ Qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligi ■ Sanoat ■ Qurilish ■ Savdo ■ Xizmat

2024-yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda – **43,2** % ni, qishloq, xizmatlar sohasida – **28,3** % ni va sanoatda – **17,1** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi savdoda – **39** % ni, xizmatlar sohasida – **29,5** % ni, sanoatda – **21,8** % ni tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi savdoda – **42,6** % ni, xizmatlar sohasida – **25,9** %, sanoatda – **25,9** % ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning I choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da


	O‘tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o‘zgarishlar		
	Ko‘payish (yaxshilanish*)	o‘zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiyligi aylanmasi	36,2	57,2	6,6
Band bo‘lganlar soni	20,9	74,9	4,2
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	29,8	65,4	4,8
Moliyaviy mablag‘lar: o‘z, kredit va qarz mablag‘lari	27,1	68,4	4,5
Raqobat muhiti	39,0	57,7	3,3

	Yaqin 3 oyda o‘zgarishlar istiqboli		
	Ko‘payish (yaxshilanish*)	o‘zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiyligi aylanmasi	42,7	53,7	3,6
Band bo‘lganlar soni	21,5	75,8	2,7
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	32,3	64,1	3,6
Moliyaviy mablag‘lar: o‘z, kredit va qarz mablag‘lari	31,5	65,6	2,9
Raqobat muhiti	40,5	57,2	2,3

* Faqat raqobat muhitiga tegishli


Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**2024- yilning I choragida biznesga ishonch muhitini baholash,
o‘tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o‘zgarishlar, % da**



■ ko‘payish (yaxshilanish*) ■ o‘zgarishsiz ■ kamayish (yomonlashish*)

2024- yilning I choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o‘zgarishlar istiqboli, % da



■ ko‘payish (yaxshilanish*) ■ o‘zgarishsiz ■ kamayish (yomonlashish*)

* Faqat raqobat muhitiga tegishli